

YENGIL SANOAT KORXONALARI FAOLIYATIDA SAMARADORLIKNI OSHIRIRISH MASALALARI

Xolmirzayeva Qutlug' Habibaxonim Xamidxon qizi

Namangan Davlat Tehnika Universiteti, PhD qutlughabibaxonimholmirzayeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20201608>

Аннотация: Лёгкая промышленность — это совокупность отраслей промышленности, специализирующихся на производстве широкого спектра потребительских товаров и продукции из разнообразного сырья. В последние годы руководство нашей страны предприняло ряд усилий по развитию легкой промышленности. В данной статье представлена подробная информация по этому вопросу.

Ключевые слова: легкая промышленность, готовая продукция, сырье, валовой внутренний продукт, текстильная промышленность, трикотажные изделия, производство промышленной продукции, внешнеторговый оборот, объем экспорта, объем импорта.

Annotatsiya: Yengil sanoat — xilma-xil xom ashyodan keng iste'mol mahsulotlari va buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui hisoblanadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz rahbariyati tomonidan yengil sanoatni rivojlantirish bo'yicha qator sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Ushbu maqolada yuqoridagilar bo'yicha atroflicha ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yengil sanoat, tayyor mahsulot, xom ashyo, yalpi ichki mahsulot, to'qimachilik sanoati, trikotaj mahsulotlari, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, tashqi savdo aylanmasi, eksport hajmi, import xajmi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida qator tarmoqlar va sohalar qatori yengil sanoatning ham o'z o'rni va ahamiyati bor. Mamlakatimiz yengil sanoati rivojlangan tarmoq bo'lib, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarini chuqur qayta ishlash bilan shug'ullanadigan korxonalar yig'indisidan iborat. Yengil sanoat — xilma-xil xom ashyodan keng iste'mol mahsulotlari va buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui hisoblanadi. Yengil sanoatda xom ashyoga ham dastlabki ishlov berish, ham tayyor mahsulot ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Mamlakatimiz yengil sanoati tarmog'i korxonalarida paxta, ipak, zigir, kanop, jut tolalari, hayvonlar terisi, yungi, sun'iy tolalar, sun'iy charm xom ashyo sifatida foydalaniladi. Yengil sanoatning asosiy tarmoqlari to'qimachilik, tikuvchilik, ko'nchilik, mo'ynado'zlik, poyafzal sanoatlari hisoblanadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz rahbariyati tomonidan yengil sanoatni rivojlantirish bo'yicha qator sa'y-harakatlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va “O'zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida”gi farmonida iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Unga ko'ra soha va tarmoqlarni texnologik o'sish modeliga o'tkazish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini 2030 yilgacha 240 milliard AQSH dollaridan oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib, joriy yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 167 milliard AQSH dollariga yetkazish, iqtisodiy o'sishni 6,6 foizga yetkazish, inflyatsiya darajasini 6 — 6,5 foizga tushirish, byudjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz darajasida saqlash, 1 million nafar fuqaroni doimiy ish bilan ta'minlash va 263 ming oilani kambag'allikdan chiqarish orqali kambag'allik darajasini 2,8 foizgacha hamda ishsizlik darajasini 4,5 foizgacha tushirish,

iqtisodiyotga 50,4 milliard AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish yo'nalishlari belgilangan. Bu yo'nalishlarni amalga oshirish uchun barcha tarmoq va sohalarida yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashga olib boradigan tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu tadbirlar ichida yengil sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, yangilarini barpo etish, faoliyat yo'nalishlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan qator yo'nalishlar belgilangan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida ko'plab tarmoqlar va sohalar qatori sanoatning rivojlanishiga katta e'tibor qaratildi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining yaratilishida sanoatning ulushi ortib bormoqda. 2025 yili mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 1849650,0 mlrd.so'mni tashkil qildi va o'tgan 2024 yilga nisbatan olganda 107,74 % ni tashkil qildi. 2025 yili mamlakatimiz sanoatida 1101130,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 26,4 % ni tashkil etdi va o'sish sur'ati 106,8 % ni tashkil qildi (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishi ko'rsatkichlari

N ^o	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2024 yil	2025 yil	2025 yili 2024 yilga nisbatan, %da
1	Yalpi ichki mahsulot	mlrd.so'm	1716771,8	1849650	107,74
2	Sanoat	mlrd.so'm	1030302,2	1101130,8	106,8

Annotatsiya: Yengil sanoat — xilma-xil xom ashyodan keng iste'mol mahsulotlari va buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui hisoblanadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz rahbariyati tomonidan yengil sanoatni rivojlantirish bo'yicha qator sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Ushbu maqolada yuqoridagilar bo'yicha atroflicha ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yengil sanoat, tayyor mahsulot, xom ashyo, yalpi ichki mahsulot, to'qimachilik sanoati, trikotaj mahsulotlari, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, tashqi savdo aylanmasi, eksport hajmi, import xajmi

Hozirgi davrda O'zbekiston yengil sanoati ko'p tarmoqli industrial majmua bo'lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlari, to'qimachilik, trikotaj, pillakashlik, shoyi to'qish, tikuvchilik, ko'n-poyafzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqarish sohalarida 400 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Respublika sanoat mahsuloti umumiy hajmida yengil sanoat hissasi o'sib bordi.

2.1.8-jadvaldagi ma'lumotlar Namangan viloyatining sanoat korxonalarida ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish holati bo'yicha ma'lumot beradi. 2025-yil davomida viloyatda 37 393,9 tonna paxta chigiti (2024-yilga nisbatan 25,6 % ga kamaygan), 1 140,0 tonna paxta tiviti (lint) (36,9 % ga kamaygan), 45 237,0 tonna ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (13,3 % ga ko'paygan), 30 309,5 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (5,2 % ga ko'paygan) hamda 7 639,4 tonna tozalanmagan paxta yog'i (57,4% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

2.1.8-jadval.

2025- yilda ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

N ^o	Sanoat mahsulotlari	2024 yil	2025 yil
1	Paxta chigiti, tonna	50 232,8	37 393,9
2	Paxta tiviti (lint), tonna	1 807,4	1 140,0
3	Ishlov berilgan suyuq sut,	39 927,0	45 237,0

	tonna		
4	Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	28 822,7	30 309,5
5	Tozalanmagan paxta yog'i, tonna	17 922,3	7 639,4
6	Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	9 244,0	2 886,9
7	Paxta iplari, tonna	50 489,0	45641,6
8	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	4 459,2	6 773,3

Ushbu tahliliy materiallar mamlakatimizda va uning hududlarida iqtisodiyot rivojida yengil sanoat korxonalarining o'рни va ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi. Ammo, bu sohani rivojlantirishning juda katta imkoniyatlari mavjud bo'lib, ularni amalga oshirish uchun boshqaruv faoliyatini takomillashtirish talab etiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va “O'zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dacturi to'g'risida”gi farmoni
2. Maxmudov E.X. Korxonada iqtisodiyoti (uquv qullanma).T,:TDIU, 2014.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari
4. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari